



NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN INKLYUZIV MEHNAT
MUHITINI SHAKLLANTIRISH MEHNAT BOZORINING O'ZIGA XOS
SIGMENTI SIFATIDA

Sevunov Turg'unbek Radjabovich

TDIU tayanch doktoranti

+998 88-741-00-82

sevunovturgunbek@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat bozorida o'rni va ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Unda nogiron shaxslar uchun yaratilayotgan qulay mehnat sharoitlari, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar hamda inklyuziv mehnat muhitini shakllantirishning ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *nogironligi bo'lgan shaxslar, mehnat bozori, inklyuziv mehnat muhiti, bandlik, ijtimoiy integratsiya, kasbiy tayyorlash, raqamli savodxonlik, iqtisodiy mustaqillik, ijtimoiy himoya.*

Аннотация: *В статье анализируется роль лиц с ограниченными возможностями здоровья на рынке труда и меры, направленные на повышение их социально-экономической активности. Подчеркивается важность создания благоприятных условий труда для лиц с ограниченными возможностями здоровья, проводимых государством реформ и формирования инклюзивной рабочей среды.*

Ключевые слова: *лица с ограниченными возможностями здоровья, рынок труда, инклюзивная рабочая среда, занятость, социальная интеграция, профессиональное обучение, цифровая грамотность, экономическая независимость, социальная защита.*

Abstract: *This article analyzes the role of persons with disabilities in the labor market and measures aimed at increasing their socio-economic activity. It highlights the importance of creating favorable working conditions for persons with disabilities, reforms implemented by the state, and the formation of an inclusive work environment.*

Keywords: *persons with disabilities, labor market, inclusive work environment, employment, social integration, vocational training, digital literacy, economic independence, social protection.*

So'nggi yillarda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish, ularning mehnat muhofazasi va qulay sharoitlar yaratish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning mehnat muhitini yaxshilash va ijtimoiy muhofazalarini kuchaytirishga qaratilgan. Shu bilan birga, davlat va jamiyat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash, ularga qulay sharoitlar yaratish



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



bo‘yicha qonun va me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarning asosiy maqsadi e‘tirof etilayotgan alohida toifa shaxslarning jamiyatda faol ishtirokini ta‘minlash va ularning hayot sifatini yaxshilashdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli,⁴² 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”⁴³gi, 2022- yil 17-fevraldagi PF-74-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari⁴⁴, 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁴⁵gi, 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori⁴⁶, shuningdek, 2021-yil 21-dekabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-57-sonli qarori⁴⁷ va hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining nogironlar huquqlariga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda asos bo‘lib hizmat qilmoqda.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatning teng huquqli a‘zosi sifatida faoliyat yuritishi muhim masala bo‘lib, bu ularning moliyaviy jihatdan teng mustaqillikka erishishiga olib keladi. Buning uchun ular mustaqil kasb-hunarlarini egallashlari kerak. Hozirgi vaqtda bu muammo dolzarb hisoblanib, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatda faol ishtirok etishi uchun imkoniyatlar yaratish va ularning mustaqil hayot kechirishiga ko‘maklashish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ular uchun maxsus texnik vositalar, moslashtirilgan ish joylari va individual yondashuv sharoitlarini yaratish dolzarb hisoblanadi. Bu esa ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini moslashtirishni, ish joylarida inklyuziv mehnat muhitini shakllantirishni taqozo etadi. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarning malakasini oshirish, ularni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish orqali mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta‘minlash mumkin. So‘nggi yillarda inklyuziv jamiyatni yaratish va inklyuziv mehnat sharoitlarini shakllantirish muhim vazifa sifatida ajralib turmoqda. Bu jarayonda nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatning to‘liq a‘zosi sifatida ko‘rib, ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘nalishda amalga

⁴² <https://lex.uz/docs/6600413>

⁴³ <https://lex.uz/docs/5841063>

⁴⁴ <https://lex.uz/uz/docs/5865484>

⁴⁵ <https://lex.uz/docs/3436192>

⁴⁶ <https://lex.uz/docs/5044711>

⁴⁷ <https://lex.uz/docs/5789981>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



oshirilayotgan chora-tadbirlar bunday shaxslarning ijtimoiy hayotga to'liq qo'shilishi va ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan.

So'nggi yillarda qabul qilingan xalqaro normativ hujjatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish, ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, mehnatini muhofaza qilish va ularga qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu hujjatlar imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatda to'liq va teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlash, inklyuziv imkoniyatlarni kengaytirish va ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, ularning muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan. Bu masala doimiy ravishda ustuvor vazifa sifatida ko'rib chiqilmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar soni 1,02 million kishini tashkil etadi.⁴⁸ Nogironligi bo'lgan shaxslarning moliyaviy bandligini ta'minlash va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish jamiyatning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Bu segmentga alohida e'tibor qaratish, ularni jamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shu bilan birga, bu imkoniyatlar nogiron shaxslarga iqtisodiy mustaqillik va ijtimoiy integratsiya imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning jamiyatda faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning moliyaviy jihatdan to'liq mustaqil bo'lishi ularning iqtisodiy imkoniyatlaridan va sharoitlardan qanday foydalanishiga bog'liqdir. Shu bilan birga, xususiyl sektorning ham bu jarayonga faol jalb qilinishi muhimdir. Korxonalar va tashkilotlar tomonidan nogiron xodimlarni ishga qabul qilishni rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari, subsidiyalar yoki grant tizimlari joriy etilishi ularning bandligini ta'minlashda ijobiy natijalar beradi. Bunday yondashuv nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlaydi, balki inson kapitalidan samarali foydalanish imkonini ham yaratadi. Jamiyatda yaratilgan iqtisodiy resurslar va imkoniyatlarning qulay shaklda taqdim etilishi, ularning faoliyat yuritishini qo'llab-quvvatlaydi va moliyaviy hamda iqtisodiy jihatdan to'liq mustaqil bo'lishlariga yordam beradi. Bu jarayon nogiron shaxslarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlashda psixologik qo'llab-quvvatlash, moslashtirilgan treninglar o'tkazish va ularning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbiga zo'r qiziqish bilan qarasa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo'ladi, bunday holda har bir shaxs jamiyatga eng ko'p naf keltiradi.⁴⁹ Chunki bandlik faqat ish topish bilan emas, balki insonning jamiyatdagi o'zini qadrlash hissi bilan ham chambarchas bog'liq. Shu sababli,

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumoti.

⁴⁹ SHaripov SHavkat Safarovich, Davlatov Karim, Nasriddinova Gulchehra Salohuddinovna KASBGA YO'NALTIRISHNING ILMIIY-PEDAGOGIK ASOSLARI O'QUV QO'LLANMA. Toshkent – 2007. 10-bet



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ularning mehnatga bo'lgan ishonchini oshirish, ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash orqali ular jamiyatda yanada faol va mustaqil bo'lib boradi. Yuqoridagilarga asoslangan holda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv mehnat muhitini shakllantirish bo'yicha quyudagi takliflarni berishimiz mumkin:

1. Inklyuziv mehnat infratuzilmasini kengaytirish - ish joylarini moslashtirish, texnik vositalar bilan ta'minlash va nogiron xodimlar uchun qulay mehnat muhitini yaratish tizimini joriy etish zarur.

2. Kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash markazlarini rivojlantirish - nogiron shaxslarni zamonaviy kasblar, IT yo'nalishlari va masofaviy ish ko'nikmalariga o'qitish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish kerak.

3. Inklyuziv tadbirkorlikni rivojlantirish - nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan yaratilgan mahsulot va xizmatlarni qo'llab-quvvatlash orqali ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash muhimdir.

4. Jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantirish - aholining nogironlik masalalariga nisbatan ijobiy munosabatini kuchaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va jamoatchilik orqali targ'ibot ishlarini tizimli yo'lga qo'yish lozim.

Xulosa qilib aytganimizda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv mehnat muhitini shakllantirish zamonaviy jamiyatning eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalaridan biridir. Shu bois nogiron shaxslarning mehnatda bandligini ta'minlash, ularni kasbiy tayyorlash, raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish va moslashtirilgan ish joylarini yaratish orqali jamiyatda barqarorlik va adolatni mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumoti.

2. SHaripov SHavkat Safarovich, Davlatov Karim, Nasriddinova Gulchehra Salohuddinovna KASBGA YO'NALTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI O'QUV QO'LLANMA. Toshkent – 2007.

3. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.